

“Menejment” kafedrasi professor-o’qituvchilari targ’ibot tadbirlarida

2020-yil 14-noyabr kuni Toshkent irrigatsiya va qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti “Menejment” kafedrasi mudiri Marina Li va professor-o’qituvchilari tomonidan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun - mohiyati va ahamiyatini keng jamoatchilikka etkazish maqsadida Mirzo Ulug’bek tumanidagi biriktirilgan mahallalarda “Yangi O’zbekiston - yangicha dunyoqarash” shiori ostida ma’naviy targ’ibot tadbirlari o’tkazildi. Mazkur tadbir tumandagi 50-sonli maktabda bo’lib o’tdi. Tadbirda “SXTEB” fakulteti dekani R.Hakimov, kafedra professor-o’qituvchilaridan dotsentlar A.M.Maksumxanova, B.Shafkarov, X.Do’stmuhammad, katta o’qituvchilar U.Xoliyorov, A.Mamasadiqov, assistentlar G.Xolmuratova va Sh. Xamraevalar, shuningdek, Mirzo Ulug’bek tumani hokimiyyati vakillari, TDAU dan bir guruh professor-o’qituvchilar ishtirok etishdi. Uchrashuvda dotsent A.M.Maksumxanova Prezidentimiz tashabbuslari bilan mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar, xotin-qizlarning ijtimoiyligini va faolligini oshirishga qaratilgan ustuvor vazifalar to’g’risida ma’ruza qildi.



TIQXMMI matbuot xizmati